
VILOYAT HOKIMI RISHTON TUMANIDAGI KULOLCHILIK KICHIK SANOAT ZONASINI TASHKIL ETISH BILAN BOG'LIQ TUMAN RAHBARLARI VA VILOYAT MASULLARI FAOLIYATINI O'TA QONIQARSIZ DEB BAHOLADI

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov viloyat sektorlari rahbarlari bilan Rishton tumanining Navbahor MFY hududida tashkil etilayotgan Kulolchilik kichik sanoat zonasida bo'ldi. 14 gektar maydonni egallagan ushbu KSZning umumiy holati, joylashtirilgan loyihalarning o'z muddatida amalga oshirilmayotgani, qarovsizlik, yo'llarning abgor holati, hududda chiqindi uyumlari yig'ilib qolganligi viloyat hokimi tomonidan qattiq tanqid qilindi.

Tuman hokimi Subhonjon Soliev, hududiy sektor rahbari, tuman IIB boshlig'i Xojiakbar Tashpo'latov, shuningdek, viloyat va tuman kommunal tarmoqlar idoralari rahbarlarining ushbu kichik sanoat zonasi bilan bog'liq faoliyati o'ta qoniqarsiz baholandi. Sektor rahbariga masalaga mas'uliyatsiz yondashuvi uchun "hayfsan" jazosi qo'llaniladigan bo'ldi.

Kichik sanoat zonasi hududida ohak zavodi, gipsokarton ishlab chiqarish korxonasi, asfal't zavodi kabi yirik loyihalarni ham o'z ichiga olgan, umumiy qiymati 107 milliard so'm bo'lgan 50 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Shuningdek, 300 ga yaqin kulolchilik sexlari mavjud bo'lib, hozirning o'zida 3 mingdan ziyod ishchi o'rni yaratilgan. Kichik sanoat zonasining 6 gektar hududi Yoshlar sanoat zonasi uchun ajratilgan.

Viloyat rahbari joriy yil fevral oyida ushbu hududda bo'lganida, bu yerda loyihalarni amalga oshirish, kichik sanoat zonasi faoliyatini jonlantirish bo'yicha ishlar jadal olib borilmayotganligiga tanqidiy e'tibor qaratgandi. Biroq bugungi o'rganishlarda sezilarli o'zgarish amalga oshirilmagani yaqqol ko'zga tashlandi. Xayrullo Bozorov tuman rahbarlariga hamda viloyat mas'ullariga Kulolchilik kichik sanoat zonasidagi loyihalarni tez va sifatli amalga oshirishni ta'minlash, bank kreditlari bilan bog'liq masalarni hal etish, KSZ hududini obodonlashtirish bo'yicha kontseptsiya ishlab chiqish, yo'llarni asfal'tlash, elektr, gaz va suv tarmoqlarini tortish, ko'kalamzorlashtirish, eski sexlarda zamonaviy ishlash tizimini joriy etish, ularning tashqi devorlarining ta'mirlanishini tashkil etish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berdi. Amalga oshiriladigan ishlar bo'yicha aniq reja-grafik ishlab chiqiladi, topshiriqlarning ijrosi qat'iy nazoratda bo'ladi, belgilangan vazifalarni muddatida bajarmagan mas'ullarga intizomiy jazolar qo'llaniladi.

2022-09-17 05:44:21